

OG‘ZAKI TARJIMADA XARITALASH HAMDA EKT (EGA, KESIM, TO‘LDIRUVCHI) ESLATMA OLISH USULLARI

Yo‘ldoshev Ulug‘bek

yoldoshevu@mail.ru

Shonazarova Dilnoza

d.shonazarova@nordicuniversity.org

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada og‘zaki tarjima, ayniqsa ketma-ket tarjima jarayonida yozib olish (note-taking) usullari ko‘rib chiqiladi. Tarjimonlar matnni bir marta eshitish imkoniyatiga ega bo‘lishgani sababli, asosiy fikrlarni eslab qolish va muhim ma’lumotlarni yozib olish uchun qisqartirishlar va maxsus belgilardan foydalaniladi. Maqolada, eng ko‘p ishlatiladigan yozib olish usullari bo‘lmish xaritalash hamda EKT usullari va ularning o‘zbek tiliga yoki undan tarjimada samarali qo‘llanilishi bo‘yicha ba’zi ko‘rsatmalar berib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Og‘zaki tarjima, yozib olish, note-taking, xaritalash usuli, EKT usuli, qisqartirish, tarjimon, ketma-ket tarjima, eslab qolish, belgilardan foydalanish.


KIRISH

Og‘zaki tarjima, ayniqsa ketma-ket tarjimada, tarjimonlardan yozib olish (note-taking) ko‘nikmalarini puxta egallashi talab etiladi. Tarjimon belgilarni yoki so‘zlarni qisqartirishni o‘rgangan, qisqartmalarni yodlagan taqdirda ham uning oldida keyingi vazifa, gaplar yoki qisqartmalar, umuman olganda butun boshli matnni tez, qisqartirilgan va uzoq muddatli xotirada yodda qoladigan holda yozib olishdir. Quyida tarjimonlarning matnni samarali ravishda yozib olish usullari, jumladan xaritalash usuli va EKT (Ega, Kesim, To‘ldiruvchi) usuli ko‘rib chiqiladi. Xaritalash usuli turli shakllar va belgilarni qisqartirib, muhim fikrlarni eslab qolish jarayonini soddashtiradi. EKT usulida esa, tarjimonning matnni gap bo‘laklari kesimida qisqartirib yozishi va eslab qolishi ko‘zda tutiladi. Ushbu usullar, tarjimonning muloqot jarayonida uning eng muhim qismlarini tezda yozib olish va tarjima qilish imkoniyatini yaratadi. Maqolada, shuningdek, tarjimonning o‘ziga qulay hamda tushunarli belgilardan qanday foydalanishi va qisqartirishning turli usullari bilan ishlashiga e’tibor qaratilgan, bu borada taxminiy yo‘riqnomalar berib o‘tilgan va ular quyidagicha:

1.Xaritalash usuli. Bu uslubda tarjimon turli xil shakllar va belgilarni o‘zlariga qulay shaklda chizib eslab qoladi. Bu usuldan barcha turdagи ma’lumotlarni yozib olishda foydalanib bo‘lmaydi, ammo kerakli joyda foydalanilsa juda yaxshi samara beradi. Masalan:

O‘zbekistonda uzoq vaqt davomida ko‘plab ishlar amalgalashdi. 2011-yilda Toshkent markazidan Samarqandga tez-yurar poyezd qurildi. Keyinchalik temir yo‘li Samarqandning Bulung‘ur tumanigacha ham yetkazildi. Temir yo‘llari keyingi yillar ichida Samarqanddan so‘ng Qashqadaryo, u yerdan esa Surxondaryo viloyatiga ham yetib bordi. 2022-yilda Samarqandning g‘arbida joylashgan Navoiy viloyatiga ham temiryo ‘llari yetib bordi. (A lot of work has been done in Uzbekistan for a long time. In 2011, a high-speed train was built from the center of Tashkent to Samarkand. Later, the railway was extended to Bulung‘ur district of Samarkand. In the following

years, railways reached Kashkadarya after Samarkand, and from there to Surkhandarya region. In 2022, the railways reached the Navoi region, located in the west of Samarkand.)



1-rasm. Xaritalash usulidan foydalanilgan eslatma olish.

Yuqorida berilgan rasmda qora rangda chizilgan belgililar note-taking, yashil rangda esa belgilarning ifodasi yozilgan. Bu usulda tarjimon o‘ziga tanish joy nomlarini bilgani sababli faqatgina qisqartirib yozishning o‘zi tushunarli bo‘ladi. Yuqorida ko‘rsatilgan “bajarildi” belgisi ikkita, chunki ushbu belgi ko‘p so‘ziga urg‘u berish uchun qo‘llanilgan.

2.EKT (Ega, kesim, to‘ldiruvchi) usulida note-taking. Ushbu usulda daftarning chap qismida alohida chiziq chizib olinadi va o‘sha qismiga bog‘lovchi yoki kirish so‘zlar yoziladi. Agar gapda bog‘lovchilar bo‘lmasa o‘sha joy bo‘sh qoldiriladi. Keyin esa ikkinchi qatorda ega, kesim, so‘ngra esa to‘ldiruvchi keladi. Kesim egadan pastdag'i qatorda, to‘ldiruvchi esa kesimning tagida yoziladi. Ya’ni ega kesim va to‘ldiruvchi bir qatorda yozilmasligi kerak. Aks holda, bu o‘qish davomida chalkashlikka olib kelishi mumkin. Har bir gap tugagandan keyin esa uzun chiziq qo‘yiladi. Aniqrog‘i EKT usulidagi note-taking quyidagi shaklda bo‘ladi:

//	Kirish so‘z	Ega	Kesim	To‘ldiruvchi
//				

Masalan: Vazirning ta’kidlashicha, 2018–2020 yillarda 2615 ta muktabni rekonstruksiya qilish va qurish uchun katta mablag‘ajratilgan. Shuningdek, 2021 yilda investitsiya dasturi doirasida 689 ta muktabni ta’mirlash, 23 tasini qurish rejalashtirilgan. (The minister mentioned that in 2018-2020, huge amount of money was allocated for the reconstruction and building of 2615 schools. In addition, in 2021, it is planned to repair 689 schools and build 23 of them as part of the investment program.)

	Vazir	:	
18,20	\$	ajrat	2615 mak → rekons. ↗
+ 21 invest.		reja	629 mak → fa'miz, 23 → ↗

2-rasm. EKT usulidagi note-takingga misol.

Har bir tarjimon o‘ziga xos va o‘zi uchun tushunarli bo‘lgan belgilardan foydalanadi. Hamma so‘zni ham belgilar bilan yozib chiqishning iloji yo‘q, shuning uchun ba’zi so‘zlarning qisqartmasi, bosh harfi yoki tushunarli shakli yozib ketiladi. 2-rasmga nazar tashlaydigan bo‘lsak, *maktab*, *rekonstruksiya qilish*, *investitsiya*, *rejalashtirish* va *ta’mirlash* so‘zlari qisqartirish orqali yozilgan. *Ta’kidlashicha*, *mablag’*, *qurmoq* va *shuningdek* so‘zlari esa maxsus belgilar orqali berilgan. Foydalilanidigan belgilar yoki qisqartirilgan so‘zlar soni tarjimonga bog‘liq bo‘ladi. Har bir gap tugagan qismida chizilgan gorizontal chiziq esa gap tugaganligini bildiradi va uni chizish orqali tarjimon fikr tugallanganligini osongina bilib olishi mumkin bo‘ladi.

Agar matnning egasi bir nechta gapda bitta so‘z bo‘lsa, uni qayta-qaytadan yozib o‘tirishning hojati yo‘q. Kesim yoki to‘ldiruvchilar ham xuddi shunday holatda yoziladi:

// Ega	Kesim	To‘ldiruvchi
	Kesim	To‘ldiruvchi
	Kesim	To‘ldiruvchi

Yuqorida berilgan “//” belgisi alohida abzas, ya’ni yangi fikr boshlanganini bildiradi

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, tarjima jarayonida eslatmalar olish matnni eslab qolishni deyarli 70% gacha yengillashtiradi. Ushbu usul yordamida raqamlar, joy nomlari, muhim faktlar ismlar va shu kabi ma’lumotlarni saqlab qolish jarayoni osonlashadi. Agar ma’lumot yaxshilab yozib olinsa va tarjimon eslatma yozib olish usulidan unumli foydalansa matn deyarli to‘liq tarjima qilib berilishi mumkin. Eslatma olishda belgilardan tarjimonlar o‘z xohishlaridan kelib chiqqan holda har xil foydalanishlari mumkin. Asosiysi, bu belgilarni esda saqlash va yoddan chiqarmaslikdir. Eslatma olish jarayonida hamma so‘zni ham belgilarni orqali berishning imkoniy yo‘q, shuning uchun ham bir vaqtning o‘zida qisqartirishning turli xil usullaridan vaziyatga mos ravishda foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yozib olish jarayonida esa, nutq nima haqidaligiga qarab, xaritalash usuli orqali yozib olish, ega va kesimlarni ustun qilib yozish yoki o‘ziga qulay bo‘lgan usuldan foydalanishi mumkin bo‘ladi. Eng muhimi, eslatma olish jarayonida belgilar va qisqartmalarni eslab qolish va yozilgan matnni qaytadan o‘qib tarjima qilish qobiliyatidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. G‘afurov I, Mo‘minov O, Qambarov N. Tarjima nazariyasi, –Tashkent: 2012. –173 b.
2. Muminov O.M. A Guide To Simultaneous Translation. Toshkent, 2005. –136 p.
3. Mustanova Sh. Og‘zaki tarjima (ilk qadamlar). –T:2020 -138 p.
4. Shonazarova, D. (2025). Nyurenberg sudida tarjimonlar faoliyati. *Nordic_Press*, 7(0007).
5. Shonazarova, D. (2025). Nyurenberg sudi va uning tarkib topishi. *Nordic_Press*, 7(0007).
6. Shonazarova, D. (2024). O ‘zbekistonda ziyorat turizmini shakllantirishning muhim omillari. *Nordic_Press*, 3(0003).
7. Shonazarova, D. (2024). Simultaneous interpretation and required competencies for choosing the profession. *Nordic_Press*, 3(0003).
8. Shonazarova, D. (2025). INGLIZ-O ‘ZBEK TILLARI SINXRON TARJIMASIDA SIYOSIY-DIPLOMATIK NUTQNING QIYOSIY TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(20), 390-393.
9. Shonazarova, D. (2024). SINXRON TARJIMON KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI. *Nordic_Press*, 3(0003).
10. Shonazarova, D. (2024). SINXRON TARJIMA VA UNING KELIB CHIQISHI BO ‘YICHA NAZARIYALAR. *Nordic_Press*, 3(0003).
11. Shonazarova, D. SINXRON TARJIMA AMALIYOTI VA NAZARIYASI. *UZBEKİSTAN*, 43.
12. Shonazarova, D. (2024). Yuridik matnlar tarjimasi jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar va ularning yechimi. *Nordic_Press*, 3(0003).
13. Shonazarova, D. (2024). Simultaneous interpretation and required competencies for choosing the profession. *Nordic_Press*, 3(0003).
14. Shonazarova, D. (2024). ChatGPT and its challenges working with idioms and writing systems in Uzbek language. *Nordic_Press*, 3(0003).
15. Shonazarova, D. (2025). General information about anticipation in simultaneous interpretation. *Nordic_Press*, 7(0007).
16. Shonazarova, D. (2025). Linguistic features of the political

- speech. *Nordic_Press*, 7(0007).
17. Yo‘ldoshev.U.R. Tarjima nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2021. – 126 b.
 18. <http://globalts.uz/index.php/en/services/oral-translation>
 19. https://ralr.uk.ac.ir/article_2023_ed3b91c5e1a3c4baee2ae5df86a63b91.pdf